



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI TADQIQ ETISH TARIXSHUNOSLIGINING NAZARIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI

Hamroyev Shuhrat Sharofovich

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining tarixshunosligi masalalari turli soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Xususan, tarix, iqtisodiyot va sotsiologiya yo‘nalishlaridagi ilmiy tadqiqot ishlari misolida mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Maqolada mahalliy olimlarning nashr etilgan ilmiy adabiyotlari tarixiy kontekstda tahlil qilinib, mavzuning o‘rganilganlik darajasi baholangan. Shuningdek, ayrim xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlariga ham murojaat qilinib, tadbirkorlik tarixshunosligining zamonaviy tendensiyalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, tarixshunoslik, olim, tarixiy tahlil, mustaqillik, tadqiqot, mavzu, ayollar, bandlik, xorij, mulk, ajdodlar, sanoat, adabiyot, manba

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И ПРОБЛЕМЫ ИСТОРИОГРАФИИ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Хамроев Шухрат Шарофович

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, независимый
исследователь

Аннотация

В статье рассматриваются историографические аспекты развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане на основе исследований, проведённых специалистами различных научных направлений. Анализ осуществляется на примере научных работ в области истории, экономики и социологии. В рамках исследования публикации отечественных учёных по данной проблематике проанализированы в историческом контексте. При определении степени изученности темы также уделено внимание научным трудам отдельных зарубежных исследователей.

Ключевые слова: Малый бизнес, предпринимательство, историография, исследователь, исторический анализ, независимость, исследование, тема, женщины, занятость, зарубежье, собственность, предки, промышленность, литература, источник.

THEORETICAL ASPECTS AND HISTORIOGRAPHICAL ISSUES OF STUDYING ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

Hamroyev Shuhrat Sharofovich

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Independent Researcher

Abstract

This article examines the historiographical aspects of the development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan based on studies conducted by specialists in various disciplines, including history, economics, and sociology. The paper analyzes the works published by local scholars within their historical context and, in assessing the level of research on this topic, also considers the scholarly contributions of several foreign researchers.

Keywords: Small business, private entrepreneurship, historiography, researchers, historical analysis, independence, research, subject, women, employment, foreign experience, property, ancestors, industry, literature, sources.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, tadbirkorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish uchun ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Bu esa kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni yanada jadallashtirish, buning uchun esa sohani yanada kengroq, turli aspektlarda tadqiq etish imkonini berdi. Unga muvofiq, soha rivojiga to‘siq bo‘luvchi barcha cheklavlarni bartaraf etish, sohaga to‘liq erkinlik berish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi hamda nazariy asoslari yaratildi. Bu esa O‘zbekistonda kichik biznes va

xususiy tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tarixiy nuqtai nazardan ilmiy tadqiq etish, olib borilgan tadqiqotlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish imkonini berdi.

Materiallar va metodlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahliliga ko'ra, muammoning xorijda o'rganilishi hamda mustaqillik yillarida turli soha mutaxassislari tomonidan yaratilgan nashrlar, jumladan, tarix, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, huquq, sotsiologiya yo'nalishlaridagi tadqiqot ishlari va mavzuga taalluqli tahliliy materiallar tashkil qiladi. Shu bois mavzuning o'rganilganlik darajasini tahlil etish uchun mavzuga oid adabiyotlar masalaning xorijda o'rganilishi va mahalliy olimlarning nashr etgan adabiyotlari tarzida turkumlashtirildi.

Bu borada xorijiy olimlardan Piter Druker, Yozef Shumpeter, L. Mizes va F. Xayek, K. Makkonell va S. Bryu, R. Xizrich va M. Piterlarning ilmiy izlanishlari masalani tarixiy yo'nalishda tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ya'ni yuqorida nomlari qayd etilgan olimlar tomonidan o'z davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, iqtisodiy asoslari, sohani yanada rivojlantirish, jumladan, xorijda ishbilarmonlik muhitini yaratish masalalari ma'lum yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mavzu tarixshunosligi bo'yicha mahalliy olimlar tomonidan tarixiy mavzuda yaratilgan adabiyotlar alohida ahamiyatga molik bo'lib, mazkur adabiyotlar birmuncha manbalarga boyligi, masalaning u yoki bu jihatlari tahlil qilinganligi bilan ajralib turadi. Ularda O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, mazkur yo'nalishda aholi bandligini ta'minlash, xususiy mulk huquqini himoya qilish hamda uning ustuvor yo'nalishlarini yanada rag'batlantirish masalalari bayon qilingan. Bu borada R. Abdullayev, A. Roziqov, Sh. Rahmatullayev, M. Rahimov, E. Nuriddinov, Sh. Ziyomov, F. Rashidova, A. A. Maroziqov, T. Mo'minov, N. Oblomurodov, A. Hazratqulov, Q. Usmonov, M. Sodiqov, V. Ishqumatovlarning o'z mavzulari doirasidagi tadqiqotlari, chop etgan kitoblari e'tiborga molik.

Maqola tarix fanida qabul qilingan tarixiylik, manbalarni kontent-tahlil qilish, ilmiylik tahlili va kuzatuv hamda ekspert-so'rov metodlari asosida yoritilgan. Maqola tarixiy va iqtisodiy adabiyotlar tahlili, ya'ni muammoning xorijda o'rganilishi hamda mustaqillik yillarida turli soha mutaxassislari tomonidan yaratilgan nashrlar, jumladan, tarix, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, huquq, sotsiologiya yo'nalishlaridagi tadqiqot ishlari va tahliliy materiallar negizida bayon qilindi. Nazariy-metodologik asosdagi bunday yondashuvlar asosida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- obyektivlik (xolislik) va izchillik tamoyili;
- tarixiy va ijtimoiy voqea-hodisalarni xronologik asosda o'rganish;
- manba va dalillarga tayanish hamda ularning haqqoniyligiga asoslanish tamoyillari muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu maqola tarix, iqtisod, sotsiologiya fanlari uzviyligi negizida olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda ishlangan. Maqola manbalarni o'rganish, tahlil qilish va ekspert-tahlil metodlariga asoslangan holda yozildi.

Tahlil va natijalar.

Tadbirkorlik aholi turmush tarzini yuksaltirishning, bozorni mahsulotlar bilan to'ldiruvchi, davlatning daromadi va iqtisodiy qudratini oshiruvchi muhim tarmoqdir. Tadbirkorlik va uning izohi xususida so'z yuritishdan oldin "tadbirkor" so'zining lug'aviy ma'nosi va izohiga to'xtalish o'rinli. Tadbirkor so'zi arab va fors tillaridagi "tadbir" va "kor" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, tadbir qiluvchi, tadbir izlovchi ma'nolarini anglatadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da keltirilishicha, tadbirkor — bu ishlab chiqarishni yoki boshqa faoliyatni tashkil qiluvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdor.

Tadbirkorlik bu, xo'jalik yuritishning shunday tashkiliy-huquqiy shakli, unda mulk egasi bir shaxs, oila yoki jamoa bo'lishi mumkin. Ular tadbirkorlik subyekti faoliyatidan kelgan daromadning barchasiga to'liq egalik qiladi, qolaversa, biznesdagi xavf-xatar va tavakkalchilik uchun o'sha subyektning yakka o'zi javobgar bo'ladi. Tadbirkorlikning ushbu shakli chakana savdoda, umumiy ovqatlanish sohasida, reklama sohasidagi biznesda, maishiy xizmat, fermerlikda, tibbiyot amaliyotida va hunarmandchilikda ko'proq uchraydi.

Agar jahon xalqlari tarixiga e'tibor qaratilsa, tadbirkorlikning shakllanishi hamda mohiyati, uning muhim shakli biznes yuritish, iqtisodiy ishlab chiqarish, savdo, tijorat, xizmat ko'rsatish sohalarida muhim rol o'ynashi, bu borada kichik biznesning o'rni xususida xorijlik olimlarning tadqiqotlari e'tiborga molikdir. Masalan, sohaning shakllanish tarixi va mohiyati xususida Piter Druker, Yozef Shumpeter, L. Mizes va F. Xayek, K. Makkonell va S. Bryularning ilmiy izlanishlari e'tiborga molikdir. Jumladan,

amerikalik iqtisodchi olim Yozef Shumpeter (1883–1950) tadbirkor uchun mulk egaligi maqomining shart ekanligini inkor qilib, uni kishilarning turli tabaqalariga xosligini asoslaydi. U o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" kitobida tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatini iqtisodiy taraqqiyotning boshlang'ich omili sifatida ta'riflagan. Shuningdek, bu borada avstriyalik olimlar L. Mizes va F. Xayek o'z tadqiqotlarida tadbirkorlikning xususiyatlari, uning o'zgaruvchan iqtisodiy-ijtimoiy hodisalarga bardosh bera olishi, ko'nika olishi, moslasha olishi, shuningdek, tadbirkorlarning iqtisodiy tizimni muvozanatlashtirishdagi va tartibga solishdagi rolini tahlil qilishga jiddiy e'tibor qaratganlar. Amerikalik iqtisodchi olimlar R. Xizrich va M. Piterlar esa o'z tadqiqotlarida tadbirkorlikning mohiyati va tarixiy tendensiyalari xususida qayd etganlar [1]. Demak, yuqorida qayd etilganidek, xorijlik ayrim olimlarning so'nggi o'rta asrlar davriga oid tadqiqotlaridan shuni anglash mumkinki, G'arbda ushbu yo'nalish o'z davrida jadal rivojlana boshlagan. To'g'ri, bu borada o'sha kezlarda dastlabki yozma manbalar, asarlar vujudga kela boshlagan bo'lsa-da, sohani ilmiy o'rganish yoki tadqiq qilish g'arblik olim va mutafakkirlarning ilmiy ishlarining tadqiqot obyekti bo'lmagan. Ammo bu boradagi ayrim tadqiqotlar o'sha paytlarda o'ziga xos ilmiy maktablar shakllana boshlaganligini tasdiqladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid Turkiston o'lkasida zamonaviy tadbirkorlik asoslari borasidagi tadqiqotlar orasida M. Virskiyning izlanishlari birmuncha samaralidir. Jumladan, u 1898-yilda "Turkiston tijorat manzilli kalendari" ("Туркестанский коммерческий адрес-календарь") tuzilganligi o'lkadagi savdo va tijorat korxonalari hamda boshqa tadbirkorlik obyektlari xususida ma'lumotlar olishda anchagina ko'mak berganligini qayd etadi. To'plamda o'sha davrda Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo viloyatlari va Buxoro amirligidagi rus kapitali (sarmoyalari) ishtirokidagi barcha xususiy savdo-sanoat firmalari, tijorat korxonalari, do'konlar, bozorlar, banklar, reklama tarqatuvchi firmalar ro'yxati, ularning manzili, ishlab chiqarish va daromad manbalari aks etgan [2.]. Shuningdek, XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi sanoat tarmoqlari, jumladan, xususiy sanoat korxonalari to'g'risidagi ma'lumotlar V. V. Zaorskaya, K. A. Aleksandrining "Промышленные заведения Туркестанского края" nomli asarida maxsus keltirib o'tilgan. Mazkur asar biz uchun anchagina salmoqli bo'lib, unda o'lkadagi xususiy tadbirkorlik korxonalari haqidagi ma'lumotlar hududlar kesimida berib o'tilgan. Unda o'lkadagi jami 220 ta xususiy paxta tozalash zavodidan 117 tasi, shu jumladan, Farg'ona oblastida 94 ta, Samarqandda 15 ta va Sirdaryo oblastida 8 ta zavod milliy burjuaziya vakillari qaramog'ida bo'lgan, 75 ta ko'n-teri zavodidan 54 tasi, 34 ta sovun tayyorlash zavodidan 20 tasi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bu borada mualliflarning keltirgan ma'lumotlariga qaraganda, Turkistondagi barcha sanoat korxonalarida 20925 ishchi bo'lib, ulardan o'zbeklar 12702 kishi, tojiklar 1142 kishi, qirg'izlar va qozoqlar esa 944 kishi edi [3].

Ammo sovet tuzumi hukmronlik qilgan kezlarda davlatning xususiy mulkka nisbatan olib borgan teskari siyosati natijasida xususiy tadbirkorlik unutildi, o'z mohiyatini yo'qotdi. Davlatning mol-mulkka va sanoat ishlab chiqarishiga nisbatan olib borgan teskari siyosati natijasida bu boradagi tadqiqotlar ham cheklandi. Faqatgina XX asr 90-yillarining boshlari, aniqrog'i, O'zbekiston mustaqilligi ostonasi va mustaqillikning ilk yillaridan e'tiboran ushbu sohaning qayta tiklanishi va rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Ya'ni, O'zbekiston mustaqilligi yillarida mavzu tarixshunosligi bo'yicha mahalliy olimlar tomonidan tarixiy mavzuda yaratilgan adabiyotlar alohida ahamiyatga molik bo'lib, mazkur adabiyotlar birmuncha manbalarga boyligi, masalaning u yoki bu jihatlari tahlil qilinganligi bilan ajralib turadi. Bu borada A. Razzoqov, G. Agzamova, R. Abdullayev, Sh. Rahmatullayev, M. Rahimov, E. Nuriddinov, Sh. Ziyomov, F. Rashidova, A. Golovanov, T. Mo'minov, V. Ishquvatov, A. Maroziqovlarning o'z mavzulari doirasidagi tadqiqotlari, chop etgan kitoblari salmoqlidir. Nashr etilgan adabiyotlarda mualliflar kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanish omillari, oilaviy biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilikning davlat taraqqiyotidagi o'rni masalalariga o'z tadqiqotlari doirasida yondashganlar.

Ayniqsa, tarixiy va iqtisodiy mavzuda amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida A. Razzoqov ishlari salmoqli bo'lib, muallif XVI–XVIII asrlarda Shayboniylar, Ashtarxoniylar hukmronligi davriga kelib, tadbirkorlikning ilk shakllari yanada rivoj topganligini qayd etadi. Xususan, bu davrda Marg'ilon va Samarqandda zamonaviy ko'rinishdagi tadbirkorlik korxonalarining ilk ko'rinishlari shakllana boshlagan. Qo'qon va Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish, Namanganda metallsozlik, Buxoroda cho'yan buyumlar tayyorlash tobora o'sib bordi. Masalan, Qo'qonda Mallaxon davrida (1858–1862 yy.) ilk zambarak tayyorlovchi xususiy korxonaga asos solinganligi fikrimiz dalilidir, deb yozadi [4.]. U o'zining "Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari" kitobida o'lkada tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishining tarixiy tendensiyalari hamda omillarini o'rgangan.

G. Agzamova shaharlarda tadbirkorlikning ilk ko‘rinishi sifatida yuzaga kelgan hunarmandchilik turlari va ularning rivojlanish xususiyatlariga e‘tibor qaratgan. Uning yozishicha, hunarmandchilikning turli shakllari, ayniqsa uy hunarmandchiligi rivoj topganligi bois, aholi shahar mahallalarida o‘z kasb-koriga qarab joylashganlar. Ya‘ni, har bir yirik shahardagi mahallalar tadbirkorlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar turi, ya‘ni aholining kasb-koriga qarab nomlangan. Samarqandda XVI asrda 61 xil hunar bo‘lgan. Mato to‘quvchilar (bofandagon), ro‘mol to‘quvchilar (chahor-gulbafon), salla tikuvchilar (futabaron), bo‘yoqchilar (sabbog‘on), degrezlar (ohangaron), kulollar (kulolgaron), pichoqsozlar (kordagaron), qog‘ozgarlar va boshqalar [5].

Mustaqillik yillarida tadbirkorlik va uning rivojida xorijiy investitsiyalar ishtiroki masalalari F. Rashidova tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, u o‘z dissertatsiyasida respublikadagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, xorijiy kapital ishtirokidagi kichik tadbirkorlik markazlari, respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoyaga asoslangan korxonalar, O‘zbekistondagi faol investitsion muhit, kichik qo‘shma xorijiy korxonalar faoliyati masalalarini tadqiq etgan. Muallif O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasini o‘rganar ekan, hali bu borada qator muammolar mavjudligini uqtiradi.

Masalan, muallifning yozishicha, mamlakat mustaqillik yillarida ishbilarmonlik va investitsion muhitning xalqaro parametrlari doirasida “Iqtisodiy erkinlik indeksi”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish indeksi”, “Logistika effektivligi indeksi”, “Insoniyat taraqqiyoti indeksi”, “Global raqobatbardoshlik indeksi”, “Dunyo mamlakatlari xususiy mulk himoyasi indeksi”, “Dunyo mamlakatlarini xalqaro savdoga jalb qilish indeksi”larida umuman ishtirok etmadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, xalqaro investitsion muhit jozibadorligi doirasida “Fitch Ratings”, “Moody’s”, “Standard & Poor’s” xalqaro tashkilotlari reytingida umuman ishtirok etmayotgan bo‘lsa, Konsensus “OESR va SOFACE”da quyi o‘rinlarni egallab kelmoqda. Bu, shubhasiz, mamlakatimizda tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni yaratib berishda hali ko‘plab muammolar borligini ko‘rsatmoqda [6.].

A. Maroziqov O‘zbekiston mustaqilligi arafasi va uning dastlabki yillarida O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik o‘zining yangi tarixiy davriga qadam qo‘yganligini, mustaqillikning taraqqiyot davrida bozor munosabatlariga o‘tayotgan O‘zbekistonda mintaqalarning rivojlanish xususiyatlariga e‘tibor berilganligini qayd etadi. Bunda ishlab chiqarish markazlari o‘zlarida mavjud bo‘lgan tabiiy boyliklar, qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va mehnat resurslaridan to‘laroq foydalanish hisobiga iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada ko‘tarish imkoniga ega bo‘lganligi Farg‘ona viloyati misolida tadbirkorlik sohalari rivoji orqali tadqiq etilgan [7.].

Muallif o‘z tadqiqotlari va ilmiy maqolalarida Farg‘ona viloyatida paxtani qayta ishlash hamda tayyor mahsulotlar, jumladan, sopol buyumlar ishlab chiqarish, ip va kalava tayyorlash, do‘ppido‘zlik, atlas va adraslar tayyorlash, gilamchilik an‘analari rivoji va ayniqsa hunarmandchilikda Rishton kulolchilik maktabining o‘rnini alohida ta‘kidlaydi [8.].

Mustaqillik davrida xotin-qizlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi o‘rni masalalari esa olib borilgan ayrim ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘zga tashlanadi. Jumladan, xotin-qizlarning soha taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari, ayniqsa ularning bandligini ta‘minlash, iqtisodiy faolligini oshirish, kasanachilik, oilaviy tadbirkorlikdagi ishtiroki masalalari yangicha talqinlar asosida V. Baumgertner, O. Nemirovskaya, R. B. Murtazina, R. A. Ubaydullayeva, G. Ganiyeva, N. Jo‘rayevalar ishlarida o‘z aksini topgan. Ushbu risola va maqolalarda tadbirkorlik mavzusiga tegishli masalalar, xususan, uning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy jihatlarini yoritilgan.

Mavzu tarixshunoslik materiallarining tahliliga ko‘ra, iqtisodiy mavzuda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ham e‘tiborga molikdir. Ularda mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik masalalarining iqtisodiy jihatlarini, ba‘zi o‘rinlarda sohaning ayrim tarixiy xususiyatlari bayon qilingan. Ya‘ni, ushbu tarixiy davrda yaratilgan fundamental tadqiqotlar, monografiyalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi nazariy jihatdan o‘rganilgan. Tarixdan ayonki, tadbirkorlikning tarixiy-nazariy tahlili dastlab G‘arbda boshlangan bo‘lsa-da, uning mohiyati va rivojlanishiga taalluqli ko‘p qirrali bilimlar dastlab Sharqda tarkib topib, so‘ngra G‘arbda ilgari surilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu borada M. Nasritdinova va O. Axmedovlar jahon tarixiy taraqqiyotida tadbirkorlik faoliyatining 5 ta asosiy farqlanuvchan davrini ko‘rsatib, ularni quyidagi muhim tarixiy davrlarga bo‘ladilar:

- Tadbirkorlikning texnik qurollanish davri (1820–1900-yillarni o‘z ichiga olgan). Ushbu davrda barcha sanoat sohalarida inqilobiy o‘zgarishlar yuz berib, yangi texnik vositalarga asoslangan ishlab chiqarish bunyodga keldi;

- Ommaviy ishlab chiqarish davri (1900-yildan boshlab XX asrning 30-yillarini o'z ichiga oladi). Bu davr tadbirkorlik faoliyatining asosiy yo'nalishi ommaviy ishlab chiqarishni tobora samarali shaklda barpo etish va mahsulot tannarxini kamaytirish borasidagi urinishlar bilan ifodalanadi;
- Ommaviy ayirboshlash davri (XX asrning 30-yillaridan 50-yillarigacha davom etgan). Bu davrda tadbirkorlik faoliyatida asosiy e'tibor ishlab chiqarishdan bozor talablari va xaridor ehtiyojlari sari yo'naltirildi. Aynan shu davrda ilk marketing nazariyasi amaliy qaror topgan;
- Yuqori industrlashgan davr (XX asr 50-yillaridan 70-yillarining o'rtalarigacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi). Ya'ni, bu davr tadbirkorlik faoliyati rivojlanish sohaları va darajasining kengayishi bilan ajralib turadi;
- Zamonaviy tadbirkorlik davri (XX asr 70-yillaridan boshlab hozirgacha bo'lgan tarixiy davr). Bu davr sohada vujudga kelgan yangi o'zgarishlar jarayonini o'z ichiga oladi. Mazkur davrda tadbirkorlik va biznes keng ko'lamda xalqaro tus olib, internatsionallashuv hamda innovatsion texnologiyalar jarayoni sifatida rivojlandi [9].

Shu o'rinda qayd qilish joizki, sohaning O'zbekistondagi tarixiy taraqqiyoti ham e'tiborga molik bo'lib, uni iqtisodchi olim A. Qulmatov quyidagi 3 ta katta tarixiy davrga bo'ladi:

- Podsho Rossiyasi imperiyasi hukmronligi davri (1865–1917-yy.);
- Sobiq sovet davlati hukmronligi davri (1917–1991-yy.);
- O'zbekiston mustaqilligi davri [10].

Muallif tadbirkorlik rivojining iqtisodiy mohiyati va o'zgarishlariga e'tibor qaratgan bo'lsa-da, uning tarixiy rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlari, jumladan, har bir tarixiy davr nuqtai nazaridan kichik biznes va tadbirkorlik sohalarining mazkur davr talablariga tez moslasha olishi, har qanday sharoitda, ayniqsa tez-tez sodir bo'luvchi jahon iqtisodiy va moliyaviy inqirozlariga moslanuvchanligi hamda ushbu inqirozlardan kam talafot bilan chiqa olishi bilan xarakterli ekanligini qayd etadi.

Xulosa qilib aytganda, maqola mavzusiga oid ilmiy adabiyotlarning qisqacha tahlili O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanish tarixi o'tmishning ancha uzoq davrlariga borib taqalishini, ayniqsa, u yangi davrga kelib yanada rivoj topganligini ko'rsatdi. Bu borada iqtisodiy yo'nalishda tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mavzuni tarixiy aspektda tadqiq etish muhim ekanligi tasdiqlandi. Tadbirkorlik sohasining evolyutsiyasi masalasi xorijlik olimlar tomonidan ma'lum ma'noda o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston tarix fanida yetarlicha tadqiq etilmaganligi aniqlandi. Hozirgacha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimining iqtisodiy, sotsiologik, huquqiy, ekologik va demografik omillar bilan bog'liq jihatlari tadqiq etilgan bo'lsa-da, mazkur masalani tarixiy aspektda ilmiy tadqiq etish zarurligi ayon bo'ldi. Ushbu holatlar nazarda tutilib, maqolada tadbirkorlik sohasining tarixshunosligi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Ya'ni, tadbirkorlik sohasining ayrim xorijiy tadqiqotlarda hamda mahalliy olim va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan jihatlari ushbu maqola doirasida qisqacha tahlil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шумпетер Й. Теория экономического развития. — Москва, 1982. — С. 21; Бусыгин А.В. Предпринимательство в конце XX века. — Москва. — С. 34; Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство. Вып. 1. — Москва, 1991. — С. 10.
2. Вирский М. Сведения о Зерафшанском округе // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Вып. IV. — Ташкент, 187. — С. 10–122.
3. Заорская В.В., Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. Т. 2. — Ташкент, 1915. — С. 39.
4. Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. — Toshkent: O'zbekiston, 2011. — B. 181.
5. Agzamova G. So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. Toshkent, 2000.
6. Рашидова Ф. Зарубежные инвестиции в формировании и развитии малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан (исторический аспект): дис. ... д-ра философии (PhD) по историческим наукам. — Тошкент, 2019. — С. 134.
7. Maroziqov A. Mustaqillikning dastlabki yillarida Farg'ona viloyatida tadbirkorlik: erishilgan natijalar va mavjud muammolar tahlili // Farg'ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari: Respublika ilmiy anjumani materiallari. — Namangan, 2020. — B. 619.
8. Maroziqov A. Rishton kulolchilik maktabi // O'tmishga nazar. — 2019. — № 16.
9. Nasritdinova M., Axmedov O. Biznes strategiyasi. — Toshkent, 1996. — B. 12–13.
10. Qulmatov A. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi. — Toshkent: Sharq, 2004. — B. 123–124.